

# Mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash muammolari

Amonov, Navro'zxon Salohiddin o'g'li

## Проблемы обеспечения эффективной занятости на рынке труда

Амонов, Наврузхон Салохиддин угли

## Problems of providing efficient employment in the labor market

Amonov, Navruzxon Salokhiddin ogli

■ Received: April 27, 2024 ■ Revised: May 6, 2024 ■ Accepted: May 9, 2024 ■ Published Online: July 1, 2024

Аннотация: Мақоллада О'zbekiston mehnat bozorida bandlikni ta'minlash samaradorligiga salbiy ta'sir qilayotgan omillar, shuningdek, uni rivojlantirish imkoniyatlari va yechimlari ko'rib chiqilgan va mavzu yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Darhaqiqat, bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslari bandligini ta'minlash muammosi har qachingidan kuchaymoqda. Bu, ayniqsa, ortiqcha ishchi kuchining chiqishi va faol ish qidirayotganlar sonining ko'payishi bilan birga tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan o'tish davridagi iqtisodiga ega mamlakatlarda dolzarbdir. O'zining demografik tuzilishi va aholi o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan O'zbekistonda bandlik masalalari doimo eng dolzarb va ustuvor muammolardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi. Ayni paytda bandlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ushbu masalalar maqolada bayon etilgan.

Калит со'злар: bandlik, mehnat bozori, mehnat resurslari, ishchi kuchi, muqobal bandlik, kambag'allikni qisqartirish, bozor iqtisodiyoti, aholini turmush darajasi, xodimlar kapitali.

Аннотация: В статье разработаны факторы, негативно влияющие на эффективность занятости на рынке труда Узбекистана, а также возможности и пути его развития, а также выводы и предложения. Ведь в условиях рыночных отношений проблема обеспечения занятости трудовых ресурсов обостряется с каждым днем. Особенно это актуально для стран с переходной экономикой, где происходят структурные изменения с высвобождением избыточной рабочей силы и увеличением числа активных ищущих работу. В Узбекистане с его демографической структурой и высокими темпами роста населения вопросы занятости всегда были и останутся одной из наиболее актуальных и приоритетных проблем. В настоящий момент проводимая работа по совершенствованию организационно-экономических механизмов обеспечения занятости требует проведения научных исследований с серьезным подходом к вопросу. Эти вопросы описаны в статье.

Ключевые слова: занятость, рынок труда, трудовые ресурсы, рабочая сила, альтернативная занятость, сокращение бедности, рыночная экономика, уровень жизни населения, трудовой капитал.

Abstract: The article develops factors that negatively affect the efficiency of employment in the labor market of Uzbekistan, as well as opportunities and ways of its development, as well as conclusions and proposals. Indeed, in conditions of market relations, the problem of ensuring employment of labor resources is becoming more acute every day. This is especially true for countries with economies in transition, where structural changes are taking place with the release of excess labor and an increase in the number of active job seekers. In Uzbekistan, with its demographic structure and high population growth rates, employment issues have always been and will remain one of the most pressing and priority problems. Currently, the work being carried out to improve the organizational and economic mechanisms for ensuring employment requires scientific research with a serious approach to the issue. These issues are described in the article.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida xalqaro raqobat tobora kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston iqtisodiyotida ham shiddatli, sifat jihatidan butunlay yangi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Iqtisodiyotda o'z salohiyatini yo'qotgan eski institut va vositalar o'rnini yangi innovatsion va samarali boshqaruv usullari egallamoqda.

Ushbu strategik maqsadlarning barchasi O'zbekiston aholisining turmush darajasi va sifatini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda, «Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iboratdir».

Mamlakatni taraqqiy ettirish sur'atlarini oshirish, milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, eng avvalo, har qanday davlatning boyligi hisoblangan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy qismi hisoblangan- inson mehnat faoliyatining samaradorligi bilan bog'liqdir. Unumli mehnat milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlarini barqaror oshirishning bosh omili bo'libgina qolmasdan, u insonning farovon turmush kechirishini ta'minlash va ehtiyojlarini qondirish funksiyasini ham bajaradi.

Xususan, mehnat sohasidagi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-oktabrdagi «Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida»gi O'RQ-501-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5052-sonli Farmoni, 2017-yil 24-maydagi «O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3001-sonli, 2018-yil 11-iyundagi «Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta'minlashni rag'batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3782-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 4-oktabrdagi «Xizmatchilarning

asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 795-sonli, 2017-yil 28-oktabrdagi «Mehnat bozorining joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olib, ish o'rinlarini tashkil etish va kadrlar tayyorlash davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 877-sonli, 2017-yil 5-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 799-sonli, 2018-yil 20-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi 841-sonli qarorlari hamda ish bilan bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston mehnat bozorida samarali bandlikni tashkil qilish uchun hukumat tomonidan qo'yilayotgan qadamlarni anglatadi.

Ishchi kuchining eng qimmatli manbalaridan ba'zilari oddiygina foydalanilmayotgan bo'lsa, o'sish haqida gapira olmaymiz. Bu yerda yana bir muhim iqtisodiy tamoyil aniq amal qilishni to'xtatadi, ya'ni mamlakatda mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish resurslarining cheklanishi. Ishsizlik, shuningdek, odamlarning hayotiy manfaatlariga sezilarli darajada zarar yetkazadi, ularning o'z malakalarini inson o'zini eng yaxshi ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyat turida qo'llashiga to'sqinlik qiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkin, ishsizlik darajasi iqtisodiyotning umumiy holatini aniqlash va uning samaradorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Yurtimizda mehnat bozorini huquqiy muhofaza qilish hamda uning subyektlari bo'lgan ishchilar qatlami saviyasini doimiy oshirib borish, pirovardida ishsizlik ko'rsatkichini tushirishga erishish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarorlaridan shuningdek, Sh.M.

Mirziyoyevning 2018-yil 20-oktabrdagi mehnat bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishdagi topshiriqlaridan mavzunig bosh manbasi sifatida foydalanildi.

Qolaversa, mavzuni mehnat bozoriga oid ilmiy ma'lumotlar bilan izchil yoritishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi Qalandar Abdurahmonovning "Mehnat iqtisodiyoti" darsligidan samarali foyda olindi.

Mavzuga doir statistik ma'lumotlar Bandlik va kambag'allikni qisqartirish agentligi saytining hisobotlariga shuningdek, asosan ochiqmanbalar.uz sayti ma'lumotlari asosida tanlab olindi va tahlil uchun manba sifatida foydalanildi. Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi.

Mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash muammolari bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqishga G.A.Zufarova [1], D.Zaylobiddinova [2], I.X.Xuvaydullayeva [3], N.B.Ulugmuradova [4], T.A.Mamadjanova [5] singari mamlakatimiz olimlari munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehnat bozorida samarali bandlikni ta'minlash muammolari iqtisodiy tahlil, taqqoslash, guruhlash va kuzatish usullari yordamida o'rganilgan bo'lib, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, analiz va sintez metodlaridan foydalanilgan.

## ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalambor, mehnat resurslarini taqsimlaydigan va ish bilan bandlik borasida qarorlar qabul qiladigan bozor mehnat bozori deb ataladi. Mehnat bozorining subyektlari bo'lib, mehnat taqsimoti muammolarini xal etishga ixtisoslashgan hukumat organlari va mehnat resurslari ya'ni insonlar, obyektlari bo'lib esa mehnat munosabatlari va ishchi o'rinlari kabilarni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda 2021-yil 1-yanvar holatiga mehnat resurslari 19,1 mln. kishi, iqtisodiy faol aholi 14,8 mln. kishi, jami ish bilan bandlar 13,2 mln. kishi, shundan iqtisodiyotning rasmiy sektorida 5,7 mln. kishi (43,3 foiz), iqtisodiyotning norasmiy sektorida 5,6 mln. kishi (42,8 foiz), ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar 1,6 mln. kishi (10,5 foiz) va chet elda ishlash uchun ketganlar 1,8 mln. kishini tashkil qildi.

Mehnat sohasidagi keng islohotlar natijasida 2016-2020 yillarda mehnat organlari tomonidan kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilgan fuqarolar soni 8,8 barobar oshgan. Ishsizlarni jamoat ishlariga jalb etish ko'rsatkichi 65 barobar ortgan.

Shu davrda oliy ta'limga qabul parametrlari 2016 yilga nisbatan 2,5 barobarga o'sdi, yoshlarimizni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 25 foizga yetdi.

Hozirgi kunda o'zini o'zi band qiladigan shaxslar uchun 68 ta faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari tasdiqlangan bo'lib, ularni yanada kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Natijada, 2021 yil 1 iyul holatiga 852,4 ming nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazildi. Shundan 310,1 ming nafarini 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, o'zini o'zi band qilishni inson resurslarini boshqarish va aholi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishi sifatida rivojlantirish lozim. O'zini o'zi band qilishning yollanma xodimga nisbatan afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'ziga rahbar bo'lish va o'z ish faoliyatini to'liq nazorat qilish hamda yakuniy mahsulot uchun o'z ovozigacha ega bo'lish;
- ko'proq daromad olish imkoniyatiga ega bo'lish, frilanserlar yollanib ishlaydiganlarga nisbatan ko'proq pul topadilar va yo'l xarajatlarini tejagan holda uyda o'tirib, bola parvarishi bilan ham shug'ullanish imkoniyati paydo bo'lishi;
- ishning turli-tumanligi bilan bahramand bo'lish, doimiy ishga moslashish, o'z mahoratini oshirish va yangilash, har bir yangi mijoz bilan yangi chaqiriq, da'vat tufayli ijodkor bo'lishi va o'z biznesini ochishi;
- o'zi uchun kun tartibini o'rnatish, belgilangan ish jadvalining mavjud emasligi va ish soatlaring moslashuvchanligi;
- o'z mijozlarini tanlashi va kimga xizmat ko'rsatish huquqiga to'liq egalik qilishi.

Mehnat bozorida inklyuzivlikni ta'minlash, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan bandligiga ko'maklashish maqsadida ular uchun alohida dastur va chora-dasturlar qabul qilinishi natijasida aholining ushbu guruhlarini mehnat faoliyatiga faol jalb etishga erishilmoqda. Mehnat bozorining huquqiy tashkil etish jihatlariga e'tibor qaratadigan bolsak, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish borasida, yangilangan Konstitutsiyaning 43-moddasida davlat ishsizlik bilan kurashib, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga olgan.

Bandlikni ta'minlashning huquqiy asosini mustahkamlash bo'yicha so'nggi yillarda «Aholi bandligi to'g'risida»gi qonun va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi qabul qilindi. Unda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solingan.

Xalqaro Mehnat tashkiloti rasmiy sahifasida e'lon qilingan ma'lumotga ko'ra, ishsizlar soni 2024-yilda 3 millionga oshib, 2020-yildan beri birinchi marta jami 208 million kishiga yetishi kutilmoqda (jahon ishsizlik darajasi 5,8 foizga to'g'ri keladi). 2024-yilda jahon bandligining o'sishi 1,0 foizni tashkil etishini, bu 2023-yil darajasining yarmidan kam bo'lishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bilan bandlik dinamikasi, (ming kishi<sup>1</sup>)

KO'RSATKICHLAR	2001 Y.	2005 Y.	2010 Y.	2015 Y.	2020 Y.	2020 Y. 2001 Y.GA NISBATAN, %
Iqtisodiy faol aholi	9173,5	10224,1	12286,6	13767,7	14797,9	162
Ish bilan bandlar, jami	9136	10196,2	11628,4	13058,3	13239,6	169
Shundan:						
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida	5920,2	6370,4	5348,9	5294,9	5732,4	96,8
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida ulushi, %	64,8	65,5	45,9	40,5	43,3	66,8
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida	2985,1	3559,7	5990,3	5209,1	5668,9	189,9
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida ulushi, %	32,7	34,9	51,5	37,8	42,8	10,1
Ishsizlar	37,5	320,2	658,2	709,4	1558,4	42 marta
Ishsizlik darajasi, %	0,4	3,1	5,7	5,2	10,5	10,1
Iqtisodiy nofaol aholi	3643,9	4229,2	4424,9	4508,4	4344,4	19,2
Chet elda ishlash uchun ketganlar	230,7	266,1	289,2	2284,7	1838,2	8 marta
Mehnat resurslari	12817,4	14453,2	16509,7	18276,1	19142,3	49,3

O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya siyosati bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida 2026-yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olinishini nazarda tutmoqda. Ijtimoiy himoyaga ajratilgan budjet xarajatlari deyarli ikki baravarga ko'paydi. «Temir daftar», «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» tizimlari yo'lga qo'yildi. Ularda 595,6 ming kambag'al va moddiy yordamga muhtoj oilalar, 433,0 ming nafar ehtiyojmand va yordamga muhtoj xotin-qizlar, 591 ming ehtiyojmand va ko'makka muhtoj hamda ishsiz yoshlar ro'yxatga olindi. «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ni «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» bilan integratsiya qilish belgilangan. Ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand aholi muammolari yechimining asosiy qismi bandlikni ta'minlash orqali bo'ladi. Bugungi kunda yangi ish o'rinlari yaratish, o'zini-o'zi band qilish, kasanachilik, uy mehnati, tadbirkorlikni rivojlantirish kabi

tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kambag'allikka barham berishning birinchi sharti – unga munosib ish topish. Biroq, yuqorida qayd etilgan ijobiy ishlar bilan birgalikda, ishsizlik, kambag'allik hamon bor va unga qarshi kurashish tizimli bo'lishi lozim. Davlat o'z fuqarolarini ish bilan ta'minlash, ularni kambag'allik botqog'idan chiqarish bilan birga professional kasb o'rgatish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga oladi.

Taraqqiyot strategiyasining 37-maqsadini amalga oshirishda, fuqarolarga davlat hisobidan kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish belgilangan. Shu bilan birga, ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish ko'lamini ikki barobarga oshirish belgilangan va bunda:

- har yili kasb-hunarga o'qitiladigan fuqarolar soni, hududlar va tarmoqlar kesimida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga oid davlat buyurtmasini ishlab chiqish;
- mahalla kasb-hunarga o'qitish maskanlari tarmog'ini

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

kengaytirib, ularning sonini 1000 taga yetkazish;

- 16 ta «Ishga marhamat» monomarkazlari va 59 ta kasb-hunarga o'qitish markazlari quvvatlaridan samarali foydalangan holda ishsiz fuqarolarni professional kasblar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish;
- kasb-hunarga o'qitishda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish maqsadida kasb-hunarga o'qitish bo'yicha grantlar e'lon qilish kabilar nazarda tutilgan. Qayd etilgan maqsadlarni Davlat o'z zimmasiga olishidan maqsad, mehnatkash xalqimiz uchun munosib mehnat qilish, yaxshi ish haqi olishi va farovon yashashi uchun sharoitlarni yaratish. Shuningdek, xodimlarni doimiy o'qitib, tajribasini oshirib turishga oid chora-tadbir hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi 841-sonli «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori asosida «Mehnat bozorida faol chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznesni hamda xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to'siqlarni bartaraf etish orqali aholini, ayniqsa, yoshlar, nogironlarni munosib ish bilan ta'minlash va samarali ish bilan bandlikni kengaytirishga yo'naltirilgan qulay shart-sharoit yaratish» bo'yicha O'zbekiston Respublikasining istiqbolida ish bilan bandlik tarkibini takomillashtirishga qaratilgan strategik reja belgilangan. Mehnat bozorining shakllanish shart-sharoitlari O'zbekistonda mehnat bozorini shakllantirish borasida "Aholining ish bilan bandligi to'g'risida"gi Qonun (1992-yil) hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi


(1996-yil) muhim huquqiy asos hisoblanadi.

«Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, davlat boshqaruv organlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish va ularning ish bilan bandligini ta'minlash sohasida vakolatlariga ega.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, mamlakatda mehnat sohasidagi davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va uning hududiy organlari amalga oshiradi. Vazirlikning aholi ish bilan bandligini ta'minlashdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat( 2-rasm).

Mehnatga layoqatli aholi soniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasida demografik jarayonlar ustuvor hisoblanadi. Muayyan mamlakat yoki mintaqada aholining takror hosil etilishi xususiyatlari faqat mehnat resurslarning miqdorigagina emas, shuningdek, ularning tarkibi va sifati (yoshi, jinsi, salomatligi va hokazolar)ga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillarning amal qilishi nisbatan katta davmi o'z ichiga qamrab oladi. Chunki tug'ilish darajasining o'zgarishi mehnat resurslari taklifiga 15-20 yildan so'ng ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Shu bilan birga, faol va nafaol mehnat resurslari o'rtasidagi chegara juda harakatchan bo'lib, uning o'zgarishiga ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy omillar: aholi va alohida shaxsning turmush darajasi, ish haqi hamda ish bilan bandlik boshqa shartlaridagi o'zgarishlar, mehnat resurslarining demografik tarkibi, milliy an'analar, aholi turli guruhlarining ijtimoiy mehnatda ishtirok etishini tartibga solish va hokazolar ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Davlat boshqaruv organlarining mehnat resurslaridan foydalanish hamda ularni ish bilan ta'minlash borasidagi vakolatlari<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



2-rasm. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining aholini ish bilan bandligini ta'minlashdagi asosiy vazifalari<sup>1</sup>

Mehnat resurslari va ish kuchi sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich -ularning kasbiy-malaka tarkibi hisoblanadi. Har bir alohida holatda mehnat resurslarining kasbiy-malaka tarkibi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimi bilan belgilanadi. Mehnat qilayotgan ish kuchi sifatini baholashda (ayniqsa, o'tish davrida) uning kasb va hududiy harakatchanligi darajasi tobora ortib borish muhim ahamiyatga egadir. Bu daraja qator xususiyatlar: milliy an'analar, bozor infratuzilmalari rivojlanganligi darajasi, turar joy bozori mavjudligi bilan belgilanadi. Aholining ish bilan bandligi darajasini shakllantirishga mehnat qonunchiligi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ishsizlikni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar (ishsizlikni aniqlash, mazkur maqomni olish tartibi, ishsizlik aniq shakliga bog'liq ravishda statistika hisobotini olib borish xususiyatlari) davr talabi asosida muttasil takomillashtirib borilishi lozim. Jumladan, hozirgi paytda ishsizni ro'yxatga olish bosqichidayoq tegishli yo'riqnomalarning mukammal emasligi sezilib qoladi. Natijada, Ish bilan bandlikka

ko'maklashuvchi markazlar ishsizlar sifatida faqat ish qidiruvchilarning bir qismini hamda ish bilan bandlik organlariga murojaat etgan ishsiz fuqarolamigina ro'yxatga oladilar. Ko'pchilik esa o'zi mustaqil ish qidiradi va amalda ular rasmiy statistika bilan qamrab olinmagan, demak, tegishli imtiyozlardan ham foydalanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlikni shakllantirish va mehnat bozoriga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi (3-rasm). Ishsizlik darajasini kamaytirish yo'lida olib borilgan chora tadbirlar sifatida quyidagilarni tilga olishimiz mumkin. Aholini kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlashning uch bosqichli tizimi:

- 1) band bo'lmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi hududiy «Ishga marhamat» monomarkazlari;
- 2) mamlakatning barcha hududlarida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufida tuman va shahar kasb-hunarga o'qitish markazlari;
- 3) mahalla aholisini kasb-hunarga o'qitish maskanlari tashkil etildi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi





3-rasm. O'zbekiston Respublikasida ish bilan bandlikni shakllantirish va mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar<sup>1</sup>

Mehnat bozori, bandlik, demografiya, mehnat migratsiyasi, malaka tizimi va kasbiy standartlarni takomillashtirish va mehnatni muhofaza qilish yo'nalishlarida ilmiy-amaliy ishlar, tadqiqotlarni amalga oshirish hamda erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga keng joriy etish va sohada ilmiy salohiyatni oshirish maqsadida, Respublika bandlik va mehnat muhofazasi ilmiy markazi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti etib qayta tashkil etildi.

Jahondagi globallashtirish, mamlakatlarning o'zaro integratsiyalashuvi mehnat bozorida ishchi kuchining erkin harakatlanishi va ularning o'z mehnat potensialidan samarali foydalanish imkoniyatini yaratdi. 2000 yildan boshlab, O'zbekistondan chet elga mehnat faoliyati yuritish uchun chiqish doimiy xususiyatga aylandi va bu jarayonga ancha vaqt yetarli e'tibor qaratilmadi.

Mamlakatimizda ishchi kuchining profitsiti mehnat bozorida vaziyatni yumshatish, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki davrida tashqi mehnat migratsiyasining muhim ahamiyatga ega ekanligi va ushbu jarayonlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyulda "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada PQ-3839-son va 2020-yil 15-sentabrda takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarorlari qabul qilindi.

Natijada, xorijda ishlayotgan mamlakatimiz fuqarolariga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi, ularni qo'llab-quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib turmush darajasini ta'minlash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo'lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo'lishi kabi omillarga bog'liq. Chunki mamlakatimizda yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o'rta biznesning rivojlanishi bilan bog'liq.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Maqolani yozish mobaynida mehnat bozori tuzilmasini tubdan yaxshilash uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

- Ish izlovchilar hanuz ularga yordam beradigan mehnat bozori haqida ma'lumotga ega emaslar. Kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qilish va tegishli ishlarni qidirishni soddalashtirish;

- Mehnat bozori axborot tizimlarining ko'pligi mehnat bozorini yanada samarali qilishga yordam beradi. Ish qidiruvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi axborot oqimini yaxshilash;

- Yoshlar ma'lum ish uchun ish haqi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lsa, talab qilinadigan kasb va ko'nikmalar hamda muqobil kasblarni solishtirishlari mumkin bo'ladi;

- Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari va bo'sh ish o'rinlari bo'yicha ma'lumot olish, shuningdek, ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;

Umuman olganda, ish beruvchilar ham, ish izlovchilar ham hanuz shaxsiy aloqalar orqali norasmiy ish qidirish kanallaridan foydalanadi. Davlatning Ish.mehnat.uz portali ko'pchilikka ma'lum emas. Foydalanganlar portalda ro'yxatdan o'tish juda qiyin va qulay emas deb hisoblashadi, chunki ish beruvchilar ular bilan bog'lana olmaydi. Ular ish topish uchun ish e'lonlari, xususi internet ish portallaridan ko'proq foydalanishadi.

- Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda ish haqi va shogirdlik subsidiyalarini (ularning asosida iqtisodiy samaradorlik) baholash, isloh qilish va kengaytirish zarur;

- Yoshlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan va ilg'or xalqaro tajribalar asosidagi ko'nikmalar hamda boshlang'ich kapital bilan ta'minlashni kengaytirish;

- Ish beruvchi tomonidan talab qilinadigan malaka va kasblar uchun yaxshiroq diagnostikani ta'minlash, talabalar va yosh ish izlovchilarni ta'lim va bozor ma'lumotlaridan xabardor qilish;

- Tegishlik kasbiy o'nalish mexanizmlarini institutsionalizatsiya qilish;

- Targ'ibot kampaniyalarini va namunalarni ishlab chiqish;

- Yosh xotin-qizlarni ishga joylashtirish va o'z-o'zini ish bilan ta'minlashda faolligini oshirish;

- Professional to'siqlarni bartaraf etish uchun tartibga soluvchi islohotlarni rag'batlantirish, barcha tarmoqlar va hududlarda ishchi kuchining harakatchanligini oshirish;

- Xavfsiz va samarali mehnat migratsiyasini osonlashtirish;

- Davlat xizmatlari va bandlik dasturlari haqida xabardorlikni oshirish.

Yuqorida tilga olingan jihatlarni amaliyotga samarali tadbir etish orqali mehnat bozorida bandlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishish mumkin.

#### Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Амонов, Navro'zxon Salohiddin o'g'li** - Sanoat energetika guruhi ХК МСНj xodimi / **Амонов, Наврузхон Салохиддин угли** - Сотрудник ООО «Санат Энерджи Групп» / **Амонов, Navruzxon Salokhiddin ogli** - an employee of Sanoat Energy Group LLC

■ amonovnavrozxon@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-4490-1463>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] O'zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonuni (yangi tahriri). – T.: Sharq, 1998 y.
- [2] Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi. 2020 yil 25 yanvar.
- [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705).
- [4] "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli farmoni, 1-ilova, 4.1-band.
- [5] 2018-yil 29-dekabr [www.uzlider.uz](http://www.uzlider.uz) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- [6] Xolmo'minov Sh.R., Arabov N.U. Mehnat bozori infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiyalar, 2016. 150-155 b.
- [7] Зуфарова Г.А. Aholini ish bilan ta'minlash muammolari va yechimlari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 2-son. 139-145.
- [8] Gulomov S.S. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – T.: Sharq. 2000.93b
- [9] International Labor Review. 1995. V. 134. №4-6. "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2017 yil № 5, 2017 [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
- [10] Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). – T.: Mehnat, 2009. - 512 b.
- [11] Zaynobiddinova D. Mehnat resurslarini ish bilan bandlik muammosi. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №9. 49-52-betlar.
- [12] Xuvaydullayeva I.X. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash <https://conference.tsue.uz> 482-484-betlar
- [13] <http://uza.uz>
- [14] [www.stat.uz](http://www.stat.uz)